



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

**СЎЗ САНЪАТИ
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ
4 ЖИЛД, 2 СОН**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 4, НОМЕР 2**

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF WORD ART
VOLUME 4, ISSUE 2**



ТОШКЕНТ-2021

Бош муҳаррир:

Холбеков Муҳаммаджон

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Тўхтасинов Илхом

ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

Тахрир хайъати:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масбул котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Муҳаммаджон

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Тухтасинов Илхом

к.ф.н., доцент (Ўзбекистон)

Редакционная коллегия:

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Ўзбекистон)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

Editorial Board:

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. sci., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. sci., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. sci., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. sci., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. sci., prof. (Uzbekistan)

Shukashvili Tamar

Doc. of philol. sci. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Musulmonova Kamola Xusniddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adbiyoti universiteti o‘qituvchisi
musulmonova@mail.ru

LINGVISTIK EKSPERTIZANING TARKIBIY QISMLARI TAVSIFI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-10>

ANNOTATSIYA

Yuridik tilshunoslik keyingi yillarda jadal sur’atlarda rivojlanayotgan amaliy tilshunoslikning bir sohasi. Lingvistik ekspertiza esa mana shu sohaga kiruvchi asosiy yo‘nalish sanaladi. Lingvistik ekspertiza sud-ekspertizasining bir tarmog‘i sifatida faoliyat yuritib, turli konfliktli matnlarga izoh berish va sharhlash, mavhumliklarga oydinlik kiritish funksiyasini bajaradi. Albatta, lingvistik ekspertizaning vazifasini faqat shu bilangina chegaralab bo‘lmaydi. Jahon olimlari tomonidan lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari yuridik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan turlicha asoslanadi. Maqolada lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari, o‘zbek tilidagi konfliktli matnlarda lingvistik ekspertiza tarkibiy qismlarga bo‘linishining o‘ziga xos jihatlariga oydinlik kiritiladi.

Kalit so‘zlar: Lingvistik ekspertiza, yuridik tilshunoslik, lingvistik ekspertiza ob’ekti, konfliktli matnlar, og‘zaki va yozma nutq identifikatsiyasi, matn avtorizatsiyasi, umumiy alomatlar, xususiy alomatlar, ovoqli xabarlar, yuridik matnlar, rasmiy ekspertiza, tashabbus ekspertizasi.

Kirish. Turli ko‘rinishdagi matnlarni ekspertiza qilish jarayoni o‘ziga xos bosqichlarni qamrab olib, bu jarayon lingvistik tahlildan tamoman farq qiladi. Mavjud nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etilib, ekspert tomonidan umumlashmalar hosil qilinadi. Har qanday matn ham lingvistik ekspertiza o‘tkazish ob’ekti bo‘la olmaydi. Konfliktli og‘zaki va yozma matnlar lingvistik ekspertiza o‘tkazish uchun asos vazifasini bajara oladi. Og‘zaki ko‘rinishdagi matnlar telefon yozishmalari, audio va video xabarlar, favqulodda qo‘ng‘iroqlar turli irqiy kamsitish, haqorat, obro‘sizlantirish, tashviqotlarga qaratilgan ommaviy murojaatnomalar bo‘lishi mumkin. Yozma matnlar ko‘lami esa biroz kengroq. Xususan, konfliktli yozma matnlarning lingvistik ekspertizasini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Turli shaxsiy yozishmalar;
- Anonim xatlar;
- Gazeta materiallari;
- Internet saytlarida e‘lon qilingan xabarlar;
- E-mail pochталari orqali yuborilgan xatlar;

Qo‘lyozma matnlar lingvistik ekspertizasida muallifning psixologik holati, yoshi, kasb turi kabi turli ma‘lumotlarni aniqlash imkoniyati birmuncha yuqori. Qo‘lyozma matnlar kriminilaistik tadqiqotida yozma nutqning umumiy va xususiy alomatlari ajralib turadi. Umumiy alomatlar nutq

muallifining leksik, grammatik, stilistik imkoniyatlarini aniqlash va baholash imkoniyatini yuzaga keltiradi. Xususiylomatlarda noadabiy unsurlar, ortiqcha soʻzlar, iboralarni notoʻgʻri ishlatish, soʻzlar takrori, leksik soʻz boyligi yetishmasligi kabi elementlar uchraydi. Bu esa ekspertga muallif haqida umumiy jihatlarni ochishga yordam beradi.

Asosiy qism. Lingvistik ekspertizani tarkibiy qismlarga ajratishda mutaxassislar tomonida turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu soha yigirmanchi asrning soʻnggi oʻn yilliklarida rivojlangan; Grachev M. A talqinida esa lingvistik ekspertiza alohida turga ajratilgan har xil turdagi tadqiqot materiallari, moddalar, mahsulotlar, shuningdek materialshunoslik deb bilan ish koʻradigan yuridik sohaning tarmoqlaridan biri.

Biroq, yana bir nuqtai nazar -E. I. Galyashina va E. R. Rossinskayaning soʻzlariga koʻra, lingvistik ekspertiza - bu nutq tekshiruvlari sinfiga kiruvchiga ekspertizaning alohida turi.

Germaniyalik olim Jurgen Handkie fukrlariga koʻra, lingvistik ekspertizada ikki muhim omil mavjud:

- Ovozli xabarlar identifikatsiyasi;
- Yuridik matnlar identifikatsiyasi;

Birinchi turda olim ovoznining fonetik xususiyatlari, ovoz tempi va uzunligi kabilarga eʼtibor qaratish lozimligiga urgʻu bersa, yuridik matnlar identifikatsiyasida oʻz joniga qasd qilishga qaratilgan xatlar, talab shakldagi soʻrovnomalar matnlari, e-mail xabarlarini ajratib koʻrsatadi.

I.K.Brinyev fikriga koʻra yuridik tilshunoslikda lingvistik ekspertizani turlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Eng muhimi sohaga doir yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. L. V. Azhnyuk lingvistik ekspertizaning maxsus bilimlar talab qilinadigan ikki asosiy turini koʻrsatadi: Birinchidan, bu ommaviy axborot vositalarida yoki boshqa biron bir yoʻnalishda nashr etilgan ommaviy matnlar (raqamli va bosma ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, televidenie va radio matnlari dasturlar, ogʻzaki taqdimotlar, reklama matnlari, tovarlarni isteʼmolchilar uchun maʼlumot va xizmatlar, firma nomlari va boshqalar). Bunda til huquqiy tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi.

Ikkinchidan, sotsial munosabatlarni tartibga solish boʻyicha lingvistik ekspertiza. Bunda turli normativ-huquqiy hujjatlar, shaxsiy yozishmalar asosiy obʼekt boʻlib xizmat qiladi. U oʻz fikrini quyidagi misol orqali dalillaydi: Ipoteka shartnomasining X bandida ipoteka egasi nazarda tutilgan omonatchiga oʻziga xos maʼnoda rasmiy talabni maʼlum tarzda yuboradi sabablari (bu maʼlum bir huquqiy natijaga ega). Ushbu ipoteka shartnomasining Z bandi ipoteka egasi depozitga rasmiy xabarnoma yuborishi bilan taʼminlaydi boshqa sabablarga koʻra maʼlum maʼno (bu boshqa qonuniy natijaga ega). Ipoteka egasi omonatchiga bitta rasmiy hujjat (ariza - talab) yuboradi, bu bir vaqtning oʻzida rasmiy xabarni ham, rasmiy talabni ham anglatadi. Depozit bunday harakatlarning qonuniyligini shubha ostiga qoʻyadi va qonuniylarni sharhlaydi.

L. V. Azhnyuk tomonidan belgilangan tarkibiy qismlar boshqa olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan mulohazalarga nisbatan solishtirganda umumiyroq xarakter kasb etadi. Olim ikki turga ajratishda asosiy xususiyatlarga tayanadi va shunga koʻra boʻlinishni maʼqul topadi.

Anatoliy Baranov tomonidan taklif etilgan lingvistik ekspertiza tarkibiy qismlari esa tashkil etish shakliga koʻra ajartilgan deyish mumkin.

- rasmiy ekspertiza (sudning talabiga binoan amalga oshiriladi va u yuridik maqomga ega;
- tashabbus ekspertizasi (har qanday manfaatdorning talabiga binoan amalga oshiriladi (jismoniy yoki yuridik shaxs)).

Koʻrinadiki, Bunda muallif lingvistik ekspertizaning asosiy parametrlariga urgʻu berib oʻtadi. Har doim ham lingvistik ekspertiza oʻtkazishga ehtiyoj tugʻilmaydi. Sud jarayonida ayblanuvchi, gumondor, guvoh koʻrsatmalari, mavjud dalillar tahliliga asosan mavjud qonun hujjatlariga koʻra sud hukmi chiqariladi. Biroq shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, bunda nafaqat mavjud qonun hujjatlari, yuridik bilimlar, balki maxsus lingvistik bilimlarga ham ehtiyoj tugʻiladi. Xususan, haqorat va obroʻsizlantirish, mansabdor shaxs mavqeyiga putur yetkazish kabi ayblovlar; yoki turli koʻrinishdagi anonim xatlar va yozma matnlar avtorizatsiyasi masalasiga oydinlik kiritish (muallifning oʻzi yozganmi yoʻqmi, tashqi taʼsir sharoiti bormi yoʻqmi, fonetik-leksik va grammatik jihatdan qaysi hudud vakillariga nutqiga xos? Va h.k) kabi holatlarda lingvist-

ekspertning bilimi va tajribasiga ehtiyoj tug'iladi. Yuqorida keltirilgan A.N.Baranov ajratgan lingvistik ekspertizaning birinchi ko'rinishi ayni shu va shu singari vaziyatlarda tayinlanadi.

Yuridik va filologiya fanlari doktori, O.E.Kutafina nomidagi Moskva davlat universiteti professori E.I. Galyashina lingvistik ekspertizada lingvistik va huquqiy jihatlarni farqlash, ekstremistik materiallar lingvistik ekspertizasi, metod va metodologiya masalasi yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirgan. Xususan, o'z tadqiqotlarida lingvistik ekspertizaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

- Sarlavha matnlarining lingvistik ekspertizasi (nomlash bo'yicha);
- Normativ-huquqiy hujjat va aktlarning lingvistik ekspertizasi;
- Ommaviy axborot vositalari matnlari va tashviqot materiallari, xatlar, manzillar lingvistik ekspertizasi;
- Fan, adabiyot va san'at asarlarini lingvistik ekspertizasi;
- Har qanday nutq materialining lingvistik ekspertizasi.

Lingvistik ekspertiza o'tkazish jarayoning tarkibiy qismlari keyinchalik yana takomillashtirildi. Ushbu qatorga reklama matnlari lingvistik ekspertizasi; og'zaki va yozma nutqning lingvistik ekspertizasi, birlashtirilgan savdo belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari; ekstremistik materiallarning lingvistik ekspertizasi kabilari kiritildi. So'nggi yillarda ilm-fan va ijtimoiy-siyosiy aloqlarning rivojlanishi natijasida savdo belgilari, shuningdek, nomlanish bo'yicha turli yangi elementlar jadallik bilan kirib kela boshladi. Ushbu nomlar va belgilar ayrim xususiyatlari bilan xalqning milliy ko'rinishi, xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Buning natijasi o'laroq, savdo belgilari lingvistik ekspertizasiga ehtiyoj tug'iladi. Turli lingvistik adabiyotlarda, shuningdek, muayyan yuridik nashrlarda savdo belgisi atamasi "tijorat nominatsiyasi" atamasi bilan birgalikda qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, muhokama qilingan tushunchalarning aniq bo'linishi mavjud emas. Amaldagi qonunchilikda tovar belgisi ayrim yuridik yoki jismoniy shaxslarning tovarlarini boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarning o'xshash tovarlaridan ajratib turadigan belgi sifatida belgilanadi. Xuddi shunday ta'rif lingvistik adabiyotda ham uchraydi. T.A. Soboleva va A. V. Superanskayaning bayon etishicha, : "Tovar belgisi - bu tovarni tasarruf etish, foyda olish va sifatsiz mahsulotni etkazib berish uchun zarar etkazish bo'yicha eksklyuziv huquq kimga tegishli ekanligini ko'rsatadigan tijorat mulkining maxsus belgisidir".

Savdo markalari tijorat nomiga o'xshash funksiyalarni bajaradi, xususan, farqlovchi, ma'lumot beruvchi, nominativ, jozibali va boshqalar. Demak, savdo belgilari ham axborot tashish funksiyasini bajaradi. Savdo markalari xavfsizlik va kafolat funksiyalarini bajarishi lozim.

Xulosa. Yuqorida lingvistik ekspertologiyaning tarkibiy qismlari masalasi xususida fikr yuritishga harakat qildik. Ko'rinadiki, har bir bildirilgan fikr bir-birini takrorlamaydi, ayni vaqtda, bir-birini taqazo etadi. Lingvistik ekspertizaning ushbu turlari jahon tajribasida tahlil qilingan va asoslangan. Biroq o'zbekcha matnlar (og'zaki va yozma) milliy-etnik xususiyatlarga ega bo'lib, bunday matnlarni lingvistik ekspertiza qilish o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Xususan, o'zbek adabiy tilidagi matnlar va o'zbek shevalaridagi matnlar bir-biriga aslo o'xshamaydi. Ularni farqlash, matn avtorizatsiyasini aniqlashda qo'llaniladigan usul va uslublar ham turlicha bo'lishi tabiiydir. Lingvistik ekspertiza turlarini belgilashda masalaning ana shu jihatlarga ham e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz. Fikrlarimizni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, lingvistik ekspertiza o'tkazishda quyidagilarni ham tarkibiy qismlar sirasiga kiritish o'zbek yozma matnlari lingvistik ekspertizasi uchun maqsadga muvofiq:

- Dialektologik materiallar lingvistik ekspertizasi;
- Noverbal nutq vositalari orqali bayon etilgan nutq ekspertizasi (imo-ishoralar)

Fanlararo jadala integratsiya o'zaro hamkorlik va muammolarning amaliy yechim topishigiga ko'mak beradi. Shu nuqtayi nazardan lingvistik bilimlar yuridik sohada tartibga solish ob'ekti sifatida ishlaydi. Endilikda yurisprudensiya va tilshunoslikning o'zaro hamkorligi yuzaga keladigan muammolarning xolisona yechimiga xizmat qiladi. Bu jarayonda lingvistik va huquqiy bilimlar birday ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning amaliy funksiyasini yanada takomillashtirish nafaqat, yurisprudensiyada, balki fanning boshqa tarmoqlarida ham sezilari ijobiy natijalarga olib

keladi. Endilikda yuqori tajriba, bilim va malakalarga ega lingvist-ekspertlarni tayyorlash, ularning malakalarini oshirish mexanizmini ishlab chiqish lingvistik ekspertologiyaning dolzarb masalalaridan biri. Zero, lingvist-ekspert oldida qat'iy vazifalar va mas'uliyatli burch turadi. Lingvist-ekspert chuqur lingvistik, psixologik va yuridik bilimlarga ega mutaxassis bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Grachev M. A. Problems of formation and the formation of language minority as a science.//Bulletin of the Nizhny Novgorod state University n. a. N. A. Lobachevsky. – 2010, – No. 4 (2). – S. 499.
2. Galyashina E. And the foundations of judicial received any. – M.: Stance, 2003
3. Handkie Jurgen. Forensic Linguistics - An Overview.
https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds.-2014
4. Federal state standard of higher professional education in the direction of training (specialty) 031003 forensics (qualification (degree) specialist) (as amended by the order of the Ministry of education and science of the Russian Federation dated 31.05.2011 No. 1975)
5. Ажнюк Л. В. Типологія об'єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження / Леся Вікторівна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3. – С. 6
6. Galyashina E. And the foundations of judicial received any. – M.: Stance, 2003
7. Podkatilina M. L. Forensic linguistic examination of extremist materials. – M.: Writeport, 2013.
8. Соболева Т. А. Товарные знаки / Т. А. Соболева, А. В. Суперанская. М.: Наука, 1986. С.
9. Musulmonova K. Linguistic exam and its meaning//Academicia. Vol. 10 Issue 11, November 2020
10. Musulmonova K. O'zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o'tkazish maqsadi va asoslari//Wissenschaftliche ergebnisse und errungenschaften:2020. 25 dezember.Munchen.s-97-99
11. Edylova Merey, Baysalov Aly Dzhumamuratovich. Classification features of linguistic expertise and her tasks. Sciences of law. European sciences rewiev. 2015.11.06
12. Maryna Rohova. Types of linguistic expertise. Topical Issues of Humanities, Technical and Natural Sciences. <https://jti.donnu.edu.ua/article/view/4751>. 2017.
13. Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теоретические основания и практика / Анатолий Николаевич Баранов. – М. : Наука, 2007. –592 с.
14. Baranov A. N. Lingvisticheskaya ekspertiza teksta: teoreticheskiye osnovaniya i praktika [The Linguistic Expertise of Text: the Theoretical Bases and Practice]/ Anatoliy Nikolayevich Baranov. – М. : Nauka, 2007. – 592 s. [in Russian]
15. Українське бюро лінгвістичних експертиз [Електронний ресурс] – Режим доступу: <http://lingvoexpert.org.ua/node>

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Очилова Нилуфар Номозовна

Самарканд ветеринария медицинаси институти ўзбек тили,
адбиёти ва хорижий тиллар кафедраси ўқитувчиси
E-mail:ochilovanilufar2283@mail.ru

ИЛМИЙ МАТНИНГ КАТЕГОРИАЛ БЕЛГИЛАРИ

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2021-2-11>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада интертекстуаллик матннинг мураккаб хислатларидан бири бўлиб, у турли кўринишларда намоён бўлади ва ҳар хил вазифаларни бажаради. Бу категориянинг бадиий матнларда бажарадиган вазифаларда кенг қўламда ўрганилган.

Аммо унинг эксплицит, бевосита тарзда қўлланиши кўпроқ илмий матнлар мисолида кузатилади. Илмий нутқда интертекстуаллик матн мазмунини шакллантирувчи энг муҳим ва универсал восита ҳисобланади. Бинобарин, иқтибос ва ҳавола илмий асар бирон бир жиҳатдан бошқа тадқиқотлар билан алоқада эканлигини белгилаб, умумий макроматн таркибидаги микроматнни ҳосил қилади. Шу йўсинда, илмий янгиликнинг, билимнинг таъминланади (Чернявская 2005: 49). Мақолада қайд этилган ҳолатлар таҳлили интертекстуалликни илмий дискурснинг нафақат асосий хусусияти, балки уни шакллантиришнинг муҳим воситаси эканлигини эътироф этишга ундайди.

Таянч сўзлар:информативлик, сегментация, когезия, модаллик, когерентлик, интенционалик, адресатлик, ситуативлик, интертекстуаллик, аллюза, эксплицит, иқтибос, коммуникатив.

Очилова Нилуфар Номозовна

Преподаватель кафедры узбекского языка,
литературы и иностранных языков
Самаркандского института ветеринарной медицины
E-mail:ochilovanilufar2283@mail.ru

КАТЕГОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАУЧНОГО ТЕКСТА

АННОТАЦИЯ

В этой статье интертекстуальность - одна из сложных особенностей текста, она проявляется в различных формах и выполняет различные функции. Эта категория широко исследовалась в отношении функций, которые она выполняет в художественных текстах. Однако его явное, прямое применение можно увидеть на примере более научных текстов. В научном дискурсе интертекстуальность - важнейшее и универсальное средство формирования содержания текста. Таким образом, цитата и ссылка образуют микрометр в общем макрометре, отмечая, что научная работа каким-то образом связана с другими исследованиями. Таким образом